

## GRIPP. UNING KELIB CHIQISHI VA DAVOLASH CHORALARI

**Rahmonova Dilshoda Abdumalik qizi**

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

Namangan filali 1-bosqich davolash ishi

yo'nalishi talabasi

[rahmonovadilshoda1003@gmail.com](mailto:rahmonovadilshoda1003@gmail.com)

+9985007534337

**Annotatsiya**

Ushbu maqola gripp, ya'ni, infuleza kasalligining kelib chiqishi uning sabablari, bundan tashqari uning virusi tuzilishi va potogenezi hamda klinik ko'rinishlari kasallikni davolashda o'tkaziladigan chora-tadbirlarni ilmiy asos manbalar orqali yoritib beradi.

Infuleza virusining tez tarqashi undan qolgan asoratlarni nimalarni keltirib chiqarishi va uning yuquvchilik darajasi yuqori ekanligi va juda tez mutatsiyaga uchrashi haqida tibbiy jihatdan ma'lumotlar maqolada keltirib o'tilgan. Shu jumladan grippga qarshi vaksinalarning yaratilish tarixi va ularning qo'llanilishi hamda uning ahamiyati va JSST tomonidan ishlab chiqilgan global epidemilologik nazorat tizimining roli ham keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Gripp, vaksina, epidemiyalar, profilaktika, infuleza virusi, gripp tarixi, pandemiya, "Ispan grippi pandemiyasi", gripp shtammlari

**Abstract**

This article discusses the origin of influenza, its causes, the structure and pathogenesis of its virus, and the clinical manifestations of the disease, as well as the measures taken to treat it, through scientific evidence.

The article provides medical information about the rapid spread of the influenza virus, the complications it causes, its high level of infectiousness, and its rapid mutation. It also discusses the history of the creation of influenza vaccines and their

use, their importance, and the role of the global epidemiological surveillance system developed by the WHO.

**Keywords:** Influenza, vaccine, epidemics, prevention, influenza virus, history of influenza

### Аннотация

В данной статье рассматриваются происхождение гриппа, его причины, структура и патогенез вируса, клинические проявления заболевания, а также меры борьбы с ним, основанные на научных данных.

В статье представлены медицинские сведения о быстром распространении вируса гриппа, вызываемых им осложнениях, высокой контагиозности и быстрой мутации. Также рассматривается история создания и применения вакцин против гриппа, их значение и роль глобальной системы эпидемиологического надзора, разработанной ВОЗ.

**Ключевые слова:** Грипп, вакцина, эпидемии, профилактика, вирус гриппа, история гриппа.

Barchamizga ma'lumki gripp qadimdan yirik pandemiyalar turiga kiritilib kelinadi. Grippni birinchi bo'lib yunon oilimi Gippokrat o'zining asarlarida "ommaviy shamollash" sifatida ta'riflab o'tadi. Keyinchalik esa uning virusli tabiati XX asrning boshlarida aniqlanadi. 1933-yilga kelib ingliz olimlari Smit, Endryus va Leyloular tomonidan grippning Aturdagi virusi birinchi bor aniqlanadi. Bu kashfiyot esa grippga qarshi kurashning asosiy yechimi bo'lib xizmat qildi.

Gripp virusli kasalliklar oilasiga mansub bo'lib, A, B va C turdagi RNK viruslari chiqaradigan o'tkir yuqumli kasallik hisoblanadi. Bu virus asosan yuqori nafas yo'llariga zarar yetkazadi. Gripp asosan havo tomchi yo'li orqali yuqadi va tez yuquvchanlik xususiyatiga ega hisoblanadi. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, tarixda bu kasallik pandemiyalari insoniyatga juda katta talofat yetkazgan: jumladan, 1918-yilgi "Ispan grippi" pandemiyasi insoniyat tarixidagi eng halokatli pandemiya bo'ldi,

buning oqibatida 500 millondan ortiq inson zararlangan, bulardan 50 millondan ziyod insonlar vafot etgan. Pandemiya o'sha yillari juda tez fursatda Yevropa, Osiyo, va Amerikani o'rgimchak to'ri kabi qamrab oladi, o'limlar esa ko'proq o'pka yallig'lanishi va bakterial asoratlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Osiyo grippi deb atalgan pandemiya 1957-1958 yillarda dastavval Xitoyning Guandun viloyatida paydo bo'lgan. Tez orada bu kasallik butun Osiyoni qamrab oladi va AQSH, Yevropaga qadar tarqaydi. Bu pandemiya oqibatida taxminiy ma'lumotlarga ko'ra 1 millondan ziyod odam xayotdan ko'z yumadi.

1968-yili grippning A/H3N2 shtammi Gongkongda tarqalib 4 oy ichida butun dunyoni qoplaydi, bu davrga kelib o'lim xolati 500 mingdan ortiq deb baholanadi [1. Internet sayti].

Hozirgi kunga kelib ham gripp yiliga millonlab insonlarni zararlaydi. U tez mutatsiyaga uchrashi, ya'ni, antigenetik drift va shift hodisalari sababli yangi shtammlar paydo bo'ladi [2. Internet sayti].

Bu esa o'z navbatida grippga qarshi vaksinalarni doimiy ravishda yangilashga olib keladi.

Gripp - bu virus bir zanjirli RNKga ega bo'lib, sferik shaklli virus hisoblanadi. Gripp virusining asosiy tarkibi segmentlangan bir zanjirli RNK, ya'ni, A va B 8 ta segment, C 7 ta segmentga ega. Hemagglutinin va Neuraminidaza - virusning tashqi yuzasini qoplagan glikoproteinlar hisoblanadi.

Hemagglutinin virusning hujayra ichiga kirishini ta'minlab bersa Neuraminidaza esa virusni hujayradan chiqishini ta'minlab berishda ishtirok etadi. Uning yuzasida ikki turdagi antigenlar bo'ladi; gemaglyutinin (HA) va neyrominidaza (NA). Manashu antigenlar orqali grippning turli shtammlari aniqlanadi. Virus organizmga yuqori nafas yo'llari orqali kiradi va u hujayralarga birikib, hujayra ichida ko'payib boradi shu orqali u hujayralarni nobud qiladi, buning oqibatida himoya funksiyasi zararlanib shilliq qavat yallig'lanadi. Grippda ikkilamchi virusli kasalliklarni keltirib chiqaradi, bronxit, pnevmoniya, sinusit kabi asoratlar yuzaga keladi

Bu kasallik burun, tomoq o'pkaning shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Bu kasallik ko'pincha qish va bahor fasllarida tarqaladi [2. B. 78.].

Grippning asosiy tarqalish sabablari:

- kasallikning qo'zg'atuvchilari mavjud xavo orqali;
- grippga chalingan bemor bilan yaqin masofadan aloqada bo'lganda. Organizm gripp bilan zararlanganda immun reaksiyalari hamda intoksikatsiya najitasida holsizlik, katta extimol bilan istima va mushaklarni toliqishi yoki mushak og'riqlari yuzaga keladi.

Kasallik odatda to'satdan boshlanib;

\*tana harorati keskin 39-40 gradusgacha ko'tarilib ketadi;

\*bosh og'rig'i, bo'g'imlar va mushaklar og'rishi bundan tashqari umumiy xolsizlik yuzaga keladi;

\*tomoq og'rishi, burunning bitib qolishi, tez- tez yo'tal;

\*kechalari uyqusizlik, ko'ngil aynishi, ayrim xollarda qusish ham kuzatilib turadi.

Shuningdek Gripp kasalligi bolalar va yoshi kattalarda, immuniteti past odamda og'ir kechadi. Gripp juda og'ir kechgan paytda bemorda minigeoensafalit yuzaga keladi, bu kasallikka chalingan bemorlar butunlay tuzalib ketishi hali kuzatilmagan, ularni doimiy shifokor ko'rigi ostida turishi bemor uchun foydadan xoli bo'lmaydi. Shu bilan birga miokard va o'tkir respirator disterss sindromi yani(ARDS) ham kuzatiladi.

Grippning uchta asosiy turi mavjud:

\* A turi-eng xavfli turi hisoblanib, bu tur pandemiyalarni keltirib chiqaradi, yuqorida keltirilgan og'ir turdagi assoratli kasalliklar ham asosan shu turida yuzaga keladi

\* B turi- doimiy tarzda odamlar orasida uchraydi, biroq u epidemiyalarni kletirib chiqarish holatlari kuzatilgan.

\*C turi- turi yengil shaklda kechadi bu tur asosan bolalarda uchraydi.

Bugunga kelib dunyo reytinggi bo'yicha har yili 1 millarddan ziyod insonlar gripp virusi bilan kasallanadi.



3-5 million og'ir kechadigan holatlar qayd etilgan. 290000-650000 kishi esa virus va asosan uning asoratlari tufayli vafot etadi, bu statistika JSST ma'lumotlariga ko'ra olinganda shu holat mavjud ekanligini qayd etgan.

Gripp virusini yuqtirib olinganda 1 yoki 2 kun o'tib interferonlar va tabiiy killer hujayralar faollashib boradi.

4-7 kun o'tib esa IgM antitanachalari hosil bo'lib boradi.

10 yoki 14 kun oralig'ida IgG paydo bo'lib, bu uzoq muddatli immunitet hosil qilib beradi.

Shunga qaramay virus tez mutatsiyaga uchragani uchun immunitet bir necha oylar oralig'ida kuchsizlanadi.

Gripp qanday aniqlanadi?

RT-PCR yani eng aniq usul hisoblanib - gripp RNKsini aniqlab beradi.

Ekspress antigen testlar 10 daqiqada natijasi chiqadi, ammo aniqlik darajasi qisman past.

Virusni kultura qilish usuli - bu usul laboratoriya uchun mo'ljallangandir.

Serelogik testlar – bu 8 usul bilan IgM/IgG aniqlash usuli hisoblanadi.

Grippning o'ziga xos bo'lgan bir qancha asoratlari ham mavjud bo'lib, u asosan o'pkaga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni virusli pandemiya, ikkinchi darajali bakterial pevmoniya, o'tkir respirator distress sindiromi. Bundan tashqari yurakka ta'siri ham mavjud, virus ta'sirida miyokard, artimiyalar, perikard kelib chiqadi. Ya'ni u asab tizimini zararlaganda ensafalit, reye sinromi va giyen-barre sindromi kelib chiqadi. Gripp albatta iqtisodiy jihatdan jamiyatga ham putur yetkazadi, ya'ni, ishchi kuchi kamayadi, tibbiy xarajatlar ko'payadi, pandemiya kuchaygan payt ta'lim tizimlarining to'xtashi bunga sabab hisoblanadi.

Grippga qarshi kurash, shu virus paydo bo'lgan ilk yillardanoq boshlangan va grippga qarshi eng yaxshi chora deb vaksinatsiya topilgan. JSST har yili yangi shtammlarni o'rganish asosida mavsumiy gripp vaksinalarini ishlab chiqishini tadbiq etadi.

Bundan tashqari profilaktikaning boshqa usullari ham mavjud bo'lib bular:

Niqob taqish va qo'llarni tez tez yuvish;  
Immunitetni mustahkamlab turish;  
Har qanday jamoat joylarda masofa saqlash;  
Vitaminlar qabul qilish;  
Qo'lni tez tez yuvish;  
Yopiq joylarni tez tez shamollatib turish;  
Ommaviy yig'ilishlardan vaqtincha cheklanish;  
Taomnomani vitaminga boy mahsulotlar bilan boyitish;  
Maktab, bog'cha va shunga o'xshash jamoat joylardan kasallarni tez ajratish;  
Aholini yillik emlash;  
Tibbiyot xodimlari uchun himoya vositalari;

Ushbu profilaktika usullari gripp yuqishi oldini oladi. Bundan tashqari davolash chora tadbirlari ham alohida muhim o'rin kasb etadi, ya'ni, istima tushiruvchi va yo'talga qarshi hamda anitivirus preparatlar bilan davolash amalga oshiriladi.

Hozirgi zamonaviy tibbiyotda grippga qarshi juda ko'p dori darmon vositalari mavjud, bugunga kelib grippga qarshi kurash kompleks yondashuv talab etmoqda, buning sababi kasallikni kamaytirish, pandemiyani boshqarish va og'ir asoratlarni oldini olishdan iborat. Agar grippga qarshi dori vositalari kasallik boshlanganda 48 soat ichida qo'llanilsa davolash muddati 1, 2 kunga kamayadi va kasallik yengil kechadi, ayrim holatlarda kasallik 1 yoki 2 kunda bartaraf etiladi, albatta bu inson immun tizimiga bog'liq, ya'ni, inson immun tizimi qanchalik kurashuvchan bo'lsa u shunchalik kasallikka chidamli bo'ladi, hamda asoratlari oldini olinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gripp virusi - qadimiy xavfli infeksiyon kasallik bo'lib, bu virus yuqorida ta'kidlanganidek har yili millionlab insonlarni kasallantirgan va juda ko'p hollarda, ayniqsa tibbiyot hozirgi kabi rivojlanmagan paytlarda bu virus tufayli 100 dan ortiq insonlar har yili hayotdan ko'z yumgan. Gripping umumjamoaatga tarqalishiga qarshi kurashning eng yaxshi turi sifatida emlash, gigienik madaniyatni aholi orasida yuksaltirish hamda xalqaro tibbiy hamkorliklar samaradorligini oshirish deb qaraladi.

Bugungi kunga kelib gripp tarixdagi kabi aholi orasida juda xavfli kasallik sifatida qaralay qoldi bunga sabab esa zamonaviy tibbiyotimiz desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy tibbiyotning asosiy maqsadi gripp yangi shtamlarni erta aniqlash va unga qarshi vaksinalar ishlab chiqish, pandemiyalarni boshqarish va gripp qoldiradigan og'ir asoratlarni oldini olishdan iborat. Barcha inson o'z sog'ligiga birdek mas'ul bo'lib bundan tashqari atrofdagilarga ham xavf tug'dirib qo'ymasligi uchun profilaktik choralar orqali grippdan himoyalaniishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gripp>
2. <https://biotus.uz/uz/bolezni1/virusnye-infekcii/gripp.html>
3. Umarov.A.A. Xolmatova M.S. "Virusologiya asoslari" Toshkent, Fan va texnologiya, 2021.]